



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUN/6-SON,  
IV-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.  
IV-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari  
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi  
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI .....	12
<b>Qarajanova Gulnoza Tolliyevna</b>	
MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	19
<b>Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li</b>	
QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	23
<b>Mirzataev Salamat Muratbaevich</b>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQRISH VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI .....	28
<b>Tureev Azizbek Abatovich</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELII.....	32
<b>Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich</b>	
TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	37
<b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna</b>	
<b>Sharipov Kongratbay Avezimbetovich</b>	
THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS.....	43
<b>Ravshanova Mohinur O'rolovna</b>	
O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	51
<b>Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi</b>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	55
<b>Qaraev Anvar Botirovich</b>	
THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY .....	61
<b>Toirova Mubina</b>	
IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI.....	66
<b>Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi</b>	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI.....	73
<b>Rizayeva Nilufar Oblakulovna</b>	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI .....	79
<b>Abdulla Mavlonov</b>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	82
<b>Komekova Gulzira Sharbaevna</b>	



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АГРЕГИРОВАНИЮ РАЗРОЗНЕННЫХ ДАННЫХ В ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ .....	87
<b>Бекматов Акмал Курбонмахматович</b>	
SUG'URTA TASHKIOTLARIDA MHXSGA O'TISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI .....	93
<b>Azamatova G. I.</b>	
O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNING XARAJAT-FOYDA TAHLILI .....	98
<b>Omonov Olim Murodullayevich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI .....	104
<b>Isxakova Sarvar Ayubovna</b>	
<b>Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В КРЕДИТНОМ СКОРИНГЕ РОЗНИЧНЫХ ЗАЁМЩИКОВ: ОПЫТ АКБ «КАПИТАЛБАНК» (РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН) .....	109
<b>Жанайдарова Камола Абаевна</b>	
CHANGE MANAGEMENT DURING QUALITY ASSURANCE REFORM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS .....	115
<b>Urinov Bobur Nasilloevich</b>	
O'ZBEKISTONDA YASHIL VODOROD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING BIZNES VA INVESTITSION MEKANIZMLARI .....	123
<b>Nuraliyeva Komila Sanaqulovna</b>	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI: SOLIQ ISLOHOTLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	130
<b>Utkirova Jasmina Jasur qizi</b>	
XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTIDA XUSUSIY INVESTITSİYALAR VA AHOLI DAROMADLARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI .....	135
<b>Salimova Zaxro Sobirjon qizi</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI VA BASHORATI .....	141
<b>Xakimov D.R.</b>	
ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА НА ЗАНЯТОСТЬ: ОПТИМИЗАЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ РАБОЧИХ МЕСТ .....	151
<b>Эркинбаева Камила Жавлонбековна</b>	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	156
<b>Tangirkulov Bekzod Boxadirovich</b>	
HUDUDLARDA TURISTLARGA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNING SAMARALI RIVOJLANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH: RFEI INDEKSI, KLASSTER MODEL VA "TASTE UZBEKISTAN" RAQAMLI EKOTIZIMI .....	162
<b>Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna</b>	
SAVDODA MARKETING TADQIQOTLARINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	171
<b>Jalalova Dildora Jamolovna</b>	
КЛИМАТИЧЕСКОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В КОНТЕКСТЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ .....	174
<b>Лана Цхай</b>	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI MOLIYAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI MASALALARI .....	181
<b>G'oziyeva Moxira Rustam qizi</b>	
TA'LIM MUASSASALARIDA LIDERLIK SAMARADORLIGINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	189
<b>Yuldashova Yoqutoy</b>	



KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RAQAMLI KREDITLASHNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI.....	193
<b>Karimova Aziza Maxomadrizoyevna</b> <b>Abduraxmonov Faridun Firo'z o'g'li</b>	
SANOAT TARMOQLARIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA KONSEPSIYASINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MAZMUNI .....	199
<b>Mamarasulova Iroda Zafarjon qizi</b>	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРИЯ, ОТРАСЛЕВАЯ СПЕЦИФИКА И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ.....	204
<b>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</b>	
ENHANCING GREEN ACCOUNTING IN UZBEKISTAN: COMPARATIVE LESSONS FROM DEVELOPED ECONOMIES FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT .....	210
<b>Xolmurodova Durdona Otamurod qizi</b>	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, СОЦИАЛЬНЫЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	218
<b>Саттарова Зухра Илхомовна</b>	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING HUDUDIY INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIRI .....	224
<b>Toirjonov Sardorbek Dilshodjon o'g'li</b>	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNING BANDLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	229
<b>Mamadaliyev Doniyorbek Shuhratbek o'g'li</b>	
TOSHKENTDA KICHIK BIZNES KORXONALARIDA RAQAMLI TECHNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI: LOGIT VA PROBIT MODELLARI ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL.....	235
<b>Hasan Ibragimov</b> <b>Mannonov Shahzod</b> <b>Toshmurod Qulmanov</b>	
MOSLASHUVCHAN MENEJMENT VA UNING SIFAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI.....	242
<b>Ibroximova Zuhra Baxtiyor qizi</b>	
IJTIMOYIY SOHANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	247
<b>Ro'zmetov Kamol Ibodullayevich</b> <b>Ibragimov Qayumbek Ikromovich</b>	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI.....	254
<b>Muminov Bekzod Polvonovich</b>	
KORPORATIV AXBOROT TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH KONSEPSIYASINING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TASNIFI.....	263
<b>Kuchkarov Ulug'bek Tahirovich</b>	



# KORPORATIV AXBOROT TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH KONSEPSIYASINING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TASNIFI

**Kuchkarov Ulug'bek Tahirovich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Raqamli iqtisodiyot kafedrasini mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail: [u.kuchkarov@tsue.uz](mailto:u.kuchkarov@tsue.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada korporativ axborot tizimlarini raqamlashtirish konsepsiyasining nazariy evolyutsiyasi o'rganilgan va zamonaviy yondashuvlar tasniflangan. Tushunchaning axborotlashtirishdan raqamli transformatsiyaga tomon rivojlanish bosqichlari aniqlangan. Zamonaviy yondashuvlar to'rt guruhga ajratilib, muallif tomonidan raqamlashtirishning ishchi ta'rifini taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamlashtirish, korporativ tizimlar, raqamli transformatsiya, axborotlashtirish, raqamli iqtisodiyot, raqamli yetuklik.

**Аннотация.** В данной статье исследована теоретическая эволюция концепции цифровизации корпоративных информационных систем и классифицированы современные подходы к её изучению. Определены этапы развития данного понятия от информатизации к цифровой трансформации. Современные подходы разделены на четыре группы, а также предложено авторское рабочее определение цифровизации.

**Ключевые слова:** цифровизация, корпоративные системы, цифровая трансформация, информатизация, цифровая экономика, цифровая зрелость.

**Abstract.** This article examines the theoretical evolution of the concept of digitalization of corporate information systems and classifies contemporary approaches to its interpretation. The stages of development of the concept from informatization to digital transformation are identified. Modern approaches are grouped into four categories, and a working definition of digitalization is proposed by the author.

**Keywords:** digitalization, corporate systems, digital transformation, informatization, digital economy, digital maturity.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi korxonalarni boshqarish usullarini tubdan o'zgartirmoqda. Ishlab chiqarish, moliya, logistika va boshqaruv jarayonlarining raqamli platformalarga ko'chishi korporativ axborot tizimlarini nafaqat texnik vosita, balki korxonaga strategik rivojlanishining ajralmas qismiga aylantirdi. Bu jarayon axborotlashtirishdan raqamli transformatsiyaga tomon uzluksiz o'tishni aks ettiradi va korxonalar faoliyatining barcha bosqichlarini qamrab oladi.

O'zbekistonda korporativ tizimlarni raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, real sektor korxonalarida boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish vazifalarini belgilab berdi [1]. Davlat siyosatining izchilligi 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmonda ham namoyon bo'ldi: "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, strategiya maqsadlariga erishilishini monitoring qilish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish vazifasi belgilandi [2]. Bu sharoitda korporativ tizimlarni raqamlashtirish konsepsiyasini ilmiy jihatdan asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, "korporativ tizimlarni raqamlashtirish" tushunchasi ilmiy adabiyotda yagona ta'rifga ega emas. Bir qator mualliflar uni axborotlashtirish yoki avtomatlashtirishning davomi sifatida talqin qilsa, boshqalari raqamli transformatsiya bilan tenglashtiradi. Tushunchaning bunday turlicha izohlanishi uning mazmunini



aniq belgilashni, raqamlashtirish darajasini o'lchashni va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni qiyinlashtiradi. Atamalarda nomuvofiqlik nazariy tadqiqotlar bilan amaliy siyosat o'rtasidagi bog'liqlikni susaytiradi.

Mazkur muammo konsepsiyaning nazariy evolyutsiyasini izchil tahlil qilishni va zamonaviy yondashuvlarni tizimli tasniflashni taqozo etadi. Tushunchaning shakllanish bosqichlarini aniqlash va mavjud yondashuvlarni guruhlash korporativ tizimlarni raqamlashtirish bo'yicha nazariy asosni mustahkamlaydi.

Maqolaning maqsadi korporativ axborot tizimlarini raqamlashtirish konsepsiyasining nazariy evolyutsiyasini o'rganish va zamonaviy yondashuvlarni tasniflashdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: tushunchaning rivojlanish bosqichlarini aniqlash; xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlarini qiyosiy tahlil qilish; zamonaviy yondashuvlarni mezonlar asosida guruhlash; korporativ tizimlarni raqamlashtirishning ishchi ta'rifini shakllantirish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotni raqamlashtirish masalalari xorijiy olimlar tomonidan o'tgan asrning to'qsoninchi yillarida o'rganila boshlandi. "Raqamli iqtisodiyot" atamasini ilk bor kanadalik olim D. Tapkott 1994-yilda muomalaga kiritdi va raqamlashtirishning iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qildi. U tranzaksiya xarajatlarining kamayishi va yangi biznes modellarning shakllanishini raqamlashtirishning asosiy afzalliklari sifatida ko'rsatdi [3]. E. Braynjolfsson va B. Kaxin o'z ishlarida raqamlashtirishni korxonalar va iste'molchilarni virtual muhitda bog'lovchi vosita sifatida ta'rifladilar [4].

T. Mesenburg raqamli iqtisodiyotning besh tarkibiy qismini ajratib ko'rsatdi va ularni statistik baholash mumkinligini asosladi. Olim korxonalarining elektron infratuzilmasi, elektron tijorat va an'anaviy tarmoqlar qiymatining o'zgarishini raqamli iqtisodiyotning o'lchanuvchi ko'rsatkichlari qatoriga kiritdi [5]. Bu yondashuv raqamlashtirishni sifat tavsifidan miqdoriy o'lchash darajasiga ko'tarishga imkon berdi.

Tushunchaning keyingi rivojlanishi uni axborotlashtirish bilan bog'lagan tadqiqotlarda aks etadi. V. A. Plotnikov raqamlashtirishni axborotlashtirishning zamonaviy bosqichi sifatida ta'riflaydi hamda uni axborotni yaratish, qayta ishlash, uzatish va saqlashda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish bilan tavsiflaydi. Olim raqamlashtirish ishlab chiqarishning moslashuvchanligini oshirishi va mahsulot hayot siklini axborot jihatdan integratsiyalashga xizmat qilishini ta'kidlaydi [6]. I. A. Arenkov esa diqqatni korxonalar darajasiga qaratib, raqamli transformatsiya jarayonida korxonalar sifat o'zgarishi bosqichlaridan o'tishini, bu jarayon uning ishlab chiqarish, moliyaviy va axborot sohasidagi faoliyatini takomillashtirishda namoyon bo'lishini ko'rsatadi [7].

Mahalliy tadqiqotlarda korporativ boshqaruvni raqamlashtirish masalalari alohida o'rin tutadi. S. S. Gulomov iqtisodiy axborot tizimlarini avtomatlashtirilgan tarzda loyihalash va korxonalar boshqaruvida ulardan foydalanish masalalarini ishlab chiqdi [8]. E. Mo'minova va boshqa mualliflar sanoatni rivojlantirishda blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish hamda korxonalar kooperatsiyasida elektron savdo va elektron shartnomalarning o'rnini tadqiq etdilar [9].

Olib borilgan tahlil raqamlashtirish tushunchasi keng o'rganilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda tushuncha asosan umumiy iqtisodiy yoki tarmoq darajasida talqin qilinadi. Korporativ axborot tizimlarini raqamlashtirish konsepsiyasining nazariy evolyutsiyasini izchil kuzatish va zamonaviy yondashuvlarni yagona mezonlar asosida tasniflash masalasi yetarlicha yoritilmagan. Bu holat mazkur maqolaning tadqiqot yo'nalishini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning nazariy va uslubiy asosini korporativ tizimlarni raqamlashtirish sohasida tadqiqot olib borayotgan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari tashkil etadi. Tadqiqotda muammoning nazariy xarakteridan kelib chiqib, empirik hisob-kitoblardan emas, balki tushunchalarni tahlil qilish va tizimlashtirish usullari qo'llanildi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi. Abstrakt-mantiqiy usul raqamlashtirish tushunchasining mohiyatini ajratish va uning asosiy belgilarini aniqlash uchun qo'llanildi. Tarixiy-mantiqiy usul tushunchaning axborotlashtirishdan raqamli transformatsiyaga tomon rivojlanish bosqichlarini izchil kuzatish imkonini berdi. Qiyosiy tahlil usuli orqali turli mualliflarning ta'riflari va yondashuvlari o'zaro solishtirildi. Tasniflash usuli zamonaviy yondashuvlarni yagona mezonlar asosida guruhlashga xizmat qildi. Umumlashtirish usuli tahlil natijalarini jamlab, korporativ tizimlarni raqamlashtirishning ishchi ta'rifini shakllantirishga yo'naltirildi.

Tadqiqotning axborot bazasini retsenziyalanadigan ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, monografiyalar va dissertatsiyalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining raqamlashtirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari tashkil etadi. Manbalar ularning ilmiy ishonchligi va rasmiy indekslanishi mezonlari bo'yicha tanlab olindi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Korporativ tizimlarni raqamlashtirish konsepsiyasi birdaniga shakllanmagan. U axborot texnologiyalarining korxonaga boshqaruviga kirib borishi bilan bog'liq holda bir necha bosqichda rivojlangan. Bu bosqichlarni ketma-ket tahlil qilish tushunchaning hozirgi mazmunini aniq belgilash imkonini beradi.

Dastlabki bosqich axborotlashtirish bilan bog'liq. O'tgan asrning oltmishinchi yillaridan boshlab korxonalarda hisoblash texnikasi axborotni saqlash va qayta ishlash vositasi sifatida qo'llanila boshlandi. Bu bosqichda alohida funksiyalarni qo'llab-quvvatlovchi mustaqil tizimlar yaratildi, biroq ular o'zaro bog'lanmagan holda faoliyat yuritdi. Axborotlashtirish keyingi rivojlanish uchun texnik asos vazifasini bajardi.

Ikkinchi bosqich avtomatlashtirish bilan tavsiflanadi. To'qsoninchi yillarga kelib korxonalarda boshqaruvning avtomatlashtirilgan tizimlari va integratsiyalashgan ma'lumotlar bazalari joriy etildi. Aynan shu bosqichda korporativ resurslarni rejalashtirish tizimlari shakllandi va boshqaruv jarayonlarini yagona axborot maydonida birlashtirish imkoni paydo bo'ldi. S. S. G'ulomov avtomatlashtirilgan iqtisodiy axborot tizimlarini loyihalash masalalarini aynan shu nuqtayi nazardan ishlab chiqdi [8]. Avtomatlashtirish mavjud jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, korxonaga biznes modelini o'zgartirmadi.

Uchinchi bosqich raqamlashtirish sifatida ajratiladi. D. Tapskott 1994-yilda "raqamli iqtisodiyot" atamasini muomalaga kiritib, raqamli texnologiyalar tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi va yangi biznes modellarni yuzaga keltirishini ko'rsatdi [3]. T. Mesenburg raqamlashtirishni o'lchanuvchi ko'rsatkichlar tizimi orqali tavsifladi [5], V. A. Plotnikov esa uni axborotlashtirishning sifat jihatdan yangi bosqichi sifatida ta'rifladi [6]. Bu bosqichda diqqat markaziga axborotni raqamli shaklga o'tkazish emas, balki raqamli texnologiyalar yordamida jarayonlarni qayta tashkil etish masalasi ko'chdi. Internet, elektron tijorat va bulutli texnologiyalar korporativ tizimlarning ajralmas elementiga aylandi.

To'rtinchi bosqich raqamli transformatsiya bilan bog'liq. I. A. Arenkov raqamli transformatsiya jarayonida korxonaga sifat o'zgarishi bosqichlaridan o'tishini, bu jarayon uning ishlab chiqarish, moliyaviy va axborot faoliyatini qamrab olishini asosladi [7]. Bu bosqichda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, ashyolar interneti va raqamli platformalar korxonaga biznes modelini tubdan o'zgartiradi. Raqamli transformatsiya texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanmaydi, balki korxonaga boshqaruv tuzilmasi, madaniyati va qiymat yaratish zanjirini qayta qurishni taqozo etadi.

Olib borilgan tahlil ikki tushunchani aniq ajratish zaruratini ko'rsatadi. Raqamlashtirish mavjud jarayonlarni raqamli texnologiyalar yordamida samaralashtirishni anglatganda, raqamli transformatsiya korxonaning biznes modelini sifat jihatdan o'zgartirishni bildiradi. Adabiyotda bu ikki tushunchaning aralashtirilishi konsepsiyani talqin qilishdagi nomuvofiqlikning asosiy sabablaridan biridir. Bosqichlarning ketma-ketligi har bir keyingi bosqich oldingisini inkor etmasligini, balki uni yangi darajada qamrab olishini ko'rsatadi.

Korporativ tizimlarni raqamlashtirishga bo'lgan zamonaviy qarashlar turlicha bo'lib, ularni raqamlashtirishning mohiyati nimada deb qaralishiga ko'ra guruhlash mumkin. Tahlil to'rtta asosiy yondashuvni ajratish imkonini beradi.

Texnologik yondashuv raqamlashtirishni zamonaviy axborot texnologiyalarini korxonaga joriy etish sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv tarafdorlari diqqatni raqamli infratuzilmaga, dasturiy mahsulotlarga va texnik yechimlarga qaratadi. T. Mesenburgning raqamli iqtisodiyotni o'lchanuvchi tarkibiy qismlar orqali tavsiflashi shu yo'nalishga yaqin turadi [5]. Yondashuvning cheklanishi shundaki, u texnologiyani maqsad sifatida ko'radi va boshqaruv hamda qiymat jihatlarini ikkinchi darajaga suradi.

Jarayonga yo'naltirilgan yondashuv raqamlashtirishni korxonaga biznes jarayonlarini optimallashtirish vositasi sifatida qaraydi. Bu yondashuvda asosiy e'tibor ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining samaradorligini oshirish hamda ularning moslashuvchanligini ta'minlashga qaratiladi. V. A. Plotnikovning ishlab chiqarish moslashuvchanligi va mahsulot hayot siklini axborot jihatdan integratsiyalash haqidagi qarashlari bu yo'nalishga mos keladi [6]. Yondashuv jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgani bilan korxonaga strategiyasini yetarlicha qamrab olmaydi.

Qiymatga yo'naltirilgan yondashuv raqamlashtirishni korxonaga uchun yangi qiymat yaratish manbai sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv tranzaksiya xarajatlarning kamayishi, yangi biznes modellari va iste'molchi uchun qo'shimcha qiymat masalalariga urg'u beradi. D. Tapskottning raqamlashtirish yangi biznes modellarni yuzaga keltirishi haqidagi qarashi shu yo'nalishning asosini tashkil etadi [3]. Yondashuv iqtisodiy natijaga qaratilgani bilan texnologik va tashkiliy jihatlarini to'liq yoritmaydi.

Strategik-transformatsion yondashuv raqamlashtirishni korxonaga biznes modelini sifat jihatdan o'zgartiruvchi strategik jarayon sifatida qaraydi. Bu yondashuvda raqamlashtirish boshqaruv tuzilmasi, korxonaga madaniyati va qiymat yaratish zanjirini qayta qurish bilan bog'lanadi. I. A. Arenkovning raqamli transformatsiya korxonani sifat o'zgarishi bosqichlaridan o'tkazishi haqidagi qarashi bu yo'nalishga tegishli [7]. Yondashuv eng keng qamrovli bo'lgani bilan amalga oshirishda katta resurs va tashkiliy o'zgarishlarni talab qiladi (1-jadval).



Yondashuv	Asosiy e'tibor markazi	Ilmiy asos	Cheklanishi
Texnologik	Raqamli infratuzilma va texnologiyalar	Mesenburg [5]	Texnologiya maqsad sifatida ko'riladi
Jarayonga yo'naltirilgan	Biznes jarayonlar samaradorligi	Plotnikov [6]	Strategiya yetarlicha qamralmaydi
Qiymatga yo'naltirilgan	Yangi qiymat va biznes modellar	Tapkott [3]	Tashkiliy jihatlar to'liq yoritilmaydi
Strategik-transformatsion	Biznes model va boshqaruvni qayta qurish	Arenkov [7]	Katta resurs va o'zgarish talab etadi

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Jadvaldan ko'rinadiki, har bir yondashuv raqamlashtirishning muayyan jihatini aks ettiradi, biroq uni bir yoqlama talqin qiladi. Korporativ tizimlarni raqamlashtirishni to'liq tushunish uchun bu yondashuvlarni o'zaro bog'liq holda qarash zarur.

Yuqorida ajratilgan to'rt yondashuv bir-birini inkor etmaydi, balki raqamlashtirishning turli darajalarini aks ettiradi. Ularni o'zaro bog'liq holda qarash korporativ tizimlarni raqamlashtirishning yaxlit manzarasini yaratadi. Texnologik yondashuv raqamlashtirishning moddiy-texnik poydevorini, jarayonga yo'naltirilgan yondashuv uning amalga oshish mexanizmini, qiymatga yo'naltirilgan yondashuv uning iqtisodiy maqsadini, strategik-transformatsion yondashuv esa uning oliy darajasini ifodalaydi.

Bu darajalarning o'zaro munosabati ketma-ket tuzilishga ega. Raqamli infratuzilma biznes jarayonlarini samaralashtirish uchun zarur shart bo'lib xizmat qiladi. Jarayonlarning samaradorligi o'z navbatida yangi qiymat yaratish imkonini beradi. Yangi qiymatning tizimli shakllanishi esa korxonada biznes modelini sifat jihatdan o'zgartirishga, ya'ni raqamli transformatsiyaga olib keladi. Shu bois raqamlashtirishni faqat bitta yondashuv doirasida talqin qilish tushunchaning mazmunini toraytiradi.

Olib borilgan tahlil asosida korporativ tizimlarni raqamlashtirishning quyidagi ishchi ta'rifini taklif etamiz. Korporativ tizimlarni raqamlashtirish — bu raqamli texnologiyalarni integratsiyalashgan holda qo'llash orqali korxonada axborot tizimlarini bosqichma-bosqich o'zgartirish jarayoni bo'lib, u biznes jarayonlarini optimallashtirish, yangi qiymat yaratish hamda korxonada biznes modeli va boshqaruv tuzilmasini sifat jihatdan qayta qurishni qamrab oladi. Bu ta'rif raqamlashtirishni texnologik, jarayoniy, qiymatli va strategik jihatlarni birlashtirgan holda tavsiflaydi.

Taklif etilgan ta'rif amaliy ahamiyatga ega. U raqamlashtirish darajalarini ajratish imkonini beradi va korxonaning qaysi bosqichda turganini aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa raqamlashtirish darajasini baholash va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy asos yaratadi. Shu tariqa konsepsiyaning nazariy evolyutsiyasi va yondashuvlar tasnifi korporativ tizimlarni raqamlashtirish bo'yicha keyingi empirik tadqiqotlarning metodologik asosini mustahkamlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot korporativ tizimlarni raqamlashtirish konsepsiyasi uzluksiz rivojlanish natijasi ekanini ko'rsatdi. Tushuncha to'rt bosqichda shakllangan: axborotlashtirish, avtomatlashtirish, raqamlashtirish va raqamli transformatsiya. Har bir bosqich oldingisini inkor etmaydi, balki uni yangi sifat darajasida qamrab oladi. Bosqichlarning ketma-ketligini aniqlash tushunchaning hozirgi mazmunini belgilash imkonini berdi.

Tahlil raqamlashtirish va raqamli transformatsiya tushunchalarini aniq ajratish zarurligini asosladi. Raqamlashtirish mavjud jarayonlarni raqamli texnologiyalar yordamida samaralashtirishni anglatadi, raqamli transformatsiya korxonada biznes modelini sifat jihatdan o'zgartirishni bildiradi. Bu ikki tushunchaning adabiyotda aralashtirilishi konsepsiyani talqin qilishdagi nomuvofiqlikning asosiy sababidir.

Zamonaviy yondashuvlar raqamlashtirishning mohiyati qanday talqin qilinishiga ko'ra to'rt guruhga ajratildi: texnologik, jarayonga yo'naltirilgan, qiymatga yo'naltirilgan va strategik-transformatsion. Har bir yondashuv raqamlashtirishning muayyan jihatini aks ettiradi, biroq uni bir yoqlama tavsiflaydi.



Tadqiqotning ilmiy yangiligi korporativ tizimlarni raqamlashtirish yondashuvlarining yagona mezon asosidagi tasnifini ishlab chiqish va texnologik, jarayoniy, qiymatli hamda strategik jihatlarni birlashtirgan ishchi ta'rifni taklif etishdan iborat. Taklif etilgan ta'rif raqamlashtirish darajalarini ajratish va korxonaning rivojlanish bosqichini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari amaliy ahamiyatga ega. Shakllantirilgan nazariy asos raqamlashtirish darajasini baholash va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodologik poydevor yaratadi. Keyingi tadqiqotlarda taklif etilgan ta'rif va tasnif asosida tarmoq korxonalarini raqamlashtirish darajasini empirik baholash maqsadga muvofiq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/5030957>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni. "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/docs/8050769>
3. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1996. – 342 p.
4. Brynjolfsson E., Kahin B. Understanding the Digital Economy: Data, Tools, and Research. – Cambridge, MA: MIT Press, 2002. – 408 p.
5. Mesenbourg T. Measuring the Digital Economy // The Netcentric Economy Symposium. – University of Maryland, 2001. – URL: <https://www.census.gov/content/dam/Census/library/working-papers/2001/econ/umdigital.pdf>
6. Плотников В. А. Цифровизация производства: теоретическая сущность и перспективы развития в российской экономике // Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета. – 2018. – № 4 (112). – С. 16–24.
7. Аренков И. А., Смирнов С. А., Шарафутдинов Д. Р., Ябурова Д. В. Трансформация системы управления предприятием при переходе к цифровой экономике // Российское предпринимательство. – 2018. – Т. 19, № 5. – С. 1711–1722.
8. Гулямов С. С., Мусалиев А. А., Хашимходжаев Ш. И. Проектирование автоматизированных экономических информационных систем: учебник. – Ташкент: ТГЭУ, 2007. – 343 с.
9. Muminova E., Honkeldiyeva G., Kurpayanidi K., Akhunova S., Hamdamova S. Features of Introducing Blockchain Technology in Digital Economy Developing Conditions in Uzbekistan // E3S Web of Conferences. – 2020. – Vol. 159. – Article 04023.
10. Vial G. Understanding Digital Transformation: A Review and a Research Agenda // Journal of Strategic Information Systems. – 2019. – Vol. 28, No. 2. – P. 118–144.
11. Verhoef P. C., Broekhuizen T., Bart Y., Bhattacharya A., Dong J. Q., Fabian N., Haenlein M. Digital Transformation: A Multidisciplinary Reflection and Research Agenda // Journal of Business Research. – 2021. – Vol. 122. – P. 889–901.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>